

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ONA TILI

Ma'ruza matnlari



Muallif:

f.f.n., dots. M.Hamidova

2-qism

NAMANGAN – 2010

FE'L - SO'Z TURKUMI

R E J A:

- I. Fe'l – so'z turkumi haqida ma'lumot.
- II. O'timli va o'timsiz fe'llar.
- III. Fe'l nisbatlari.
 1. Aniq nisbat.
 2. O'zlik nisbati.
 3. Majhullik nisbati.
 4. Birgalik nisbati.
 5. Ortirma nisbat.
- IV. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.
- V. Fe'l zamonlari:
 1. O'tgan zamon fe'llari.
 2. Hozirgi zamon fe'llari.
 3. Kelasi zamon fe'llari.
- VI. Fe'l mayllari.
 1. Anqlik (ijro) mayli.
 2. Buyruq-istak mayli.
 3. Shart mayli.
 4. Maqsad mayli.
- VII. Ko'makchi fe'llar.
- VIII. To'liqsiz fe'llar.
- IX. Fe'llarni yasalishi.
- X. Fe'llarning tuzilish jihatidan turlari.

I. FE'L SO'Z TURKUMI XAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Predmetning ish-harakatini ifodalaydigan mustaqil so'zlar fe'l so'z turkumi deyiladi.

Masalan: mashg'ulot boshlandi, topshiriq bajarildi.

Fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, o'zgarishi kabi jarayonlarni ham harakat sifatida ifodalaydi. **Masalan:** Bolalar **dam olmoqda.** Lolalar **qizardi.** Vatanimni **sevaman.**

Morfologik jihatdan fe'lning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud: o'timli-o'timsiz, (kel-o'timsiz, o'qi-o'timli), bo'lishli-bo'lishsizlik (bor-borma), zamon

(o'qidi, o'qiyapti, o'qimoqchi), mayl (boray, borsa) kabi kategoriyalari, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi kabi shakllari bor.

Shuningdek, fe'lda tuslanish sistemasi bor. Fe'l gapda asosan, kesim vazifasida qo'llanadi.

II. O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLAR.

Fe'lda anglashilgan predmetga (to'ldiruchi) munosabati fe'ldagi o'timlilik va o'timsizlikni tashkil qiladi.

Ol, o'qi, saqla kabilar o'timli fe'llardir. **Bor, kel, o'tir, uxla** kabilar o'timsiz fe'llardir.

Harakatning tushum kelishigidagi ot bilan ifodalangan predmetga o'tganligini (vositasiz to'ldiruvchiga), ta'sir qilishini bildiradigan fe'llar o'timli fe'l deyiladi. **Masalan: Erta ko'klamda zovur va ariqlarni tozalab qo'ydik.**

Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz fe'l deyiladi. **Masalan: Do'stim kecha qishloqqa ketdi.** Fe'llardagi o'timli-o'timsizlik 2 xil ifodalanadi.

1. **Leksik** - semantik usul masalan: **ol, ko'r, kuy, ich, saqla, so'ra, och, yech.**

Odatda, quvnamoq, sevinmoq, erinmoq, uxlamoq kabi holatni anglatadigan fe'llar, yugurmoq, yurmoq, yetmoq kabi harakatni anglatadigan fe'llar o'timsiz bo'ladi.

2. **Morfologik** usul. O'timli-o'timsizlikning morfologik usul bilan ifodalanishida fe'l nisbatini yasaydigan qo'shimchalar xizmat qiladi.

a) orttirma nisbat yasovchi qo'shimchalar o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: **yurgiz, keltir, ishlat, oqiz.**

b) o'zlik va majhullik nisbatidagi fe'llarni yasaydigan qo'shimchalar esa o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: **ochil, ko'rin, yechin, saqlan** kabi.

Fe'l ko'p ma'noli bo'lganda, u bir ma'nosiga ko'ra o'timli, boshqa ma'nosiga ko'ra o'timsiz bo'lishi mumkin. **Masalan: kitob o'qiydi - o'timli, maktabda o'qiydi - o'timsiz.**

III. FE'L NISBATLARI.

Fe'l orqali ifodalangan ish — harakat va holat bilan shaxs orasidagi munosabat turlicha bo'lishi mumkin. **Masalan, o'qidim, ishladi** kabi fe'llar o'zida ishlovchi shaxsni ham ko'rsatib turibdi. Agar qaror o'qildi, topshiriq bajarildi desak, ish-harakatning o'zi haqida xabar bor, lekin uni bajaruvchi shaxsni mazkur fe'llar anglatmaydi. Ish-harakatning bajaruvchisi (sub'yekti) bilan predmeti

(ob'yekti) orasidagi yoki bir necha bajaruvchi sub'yektlar orasidagi munosabatlarning ifodalanishi **fe'l nisbati** deyiladi. **Masalan, Nazira kitob sotib oldi;** gapida sotib oldi – harakatning bajaruvchisi (sub'yekti) Nazira bo'lib, u ega orqali harakatning predmeti (ob'yekti), kitob esa vositasiz to'ldiruvchi orqali ifodalangan. Bunda harakatning asosiy bajaruvchisi kitobdir, ya'ni to'ldiruvchidir. Nazira – ega esa harakat bajarilishida vosita bo'lgan bajaruvchi shaxs.

Fe'l nisbati maxsus forma yasovcha qo'shimchalar yordami bilan yasaladi (aniq nisbat bundan mustasno). Bu qo'shimchalar fe'lning ma'nosini tamomila o'zgartirmaydi, balki unga qo'shimcha ma'no qo'shadi. Ana shu qo'shimcha ma'nolar gap ko'rinishining qanday bo'lishini bildirib turadi. Ega va to'ldiruvchining qanday forma va ma'noda birikishi fe'l nisbatining ma'nosi bilan bog'lanadi.

Masalan: ishla – eganing o'zi bajaradigan harakati, ammo yasan – eganing o'zida yangi holatni vujudga keltiradigan harakatdir.

Fe'llarda 5 ta nisbat bor:

1. Aniq nisbati.
2. O'zlik nisbati.
3. Majhullik nisbati.
4. Birgalik nisbati.
5. Orttirma nisbat.

1. ANIQ NISBAT

Aniq nisbatdagi fe'lda harakat ega tomonidan bajariladi, to'ldiruvchi esa ko'pincha harakatning ob'yekti bo'ladi. Masalan, Kulgi umrga umr qo'shadi (Maqol). Yoki: Shoira gullarning muattar hidini uzoq hidladi.

2. O'ZLIK NISBATI.

O'zlik nisbatida harakatning bajaruvchisi bilan ob'yekti bir shaxsning o'zi bo'ladi. Masalan, kiyin, yuvin, taran kabi. O'zlik nisbati quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

- a) fe'l negiziga unlidan so'ng **–n**, undoshdan so'ng esa **–in** qo'shimchasini qo'shish orqali. **Masalan, tara-n, yasa-n, yuv-in, kiy-in** kabi;
- b) fe'l negiziga **–ish** qo'shimchasini qo'shish bilan. **Masalan, ker-ish** kabi;

- d) fe'l negiziga unlidan so'ng **–l**, undoshdan so'ng **–il** qo'shimchasini qo'shish bilan. **Masalan, surka-l, shosh-il** kabi;
- e) **–lan (-la[n])** qo'shimchasini qo'shish bilan fe'l ham o'zlik nisbatida bo'ladi. **Masalan, shod-lan, jon-lan, ot-lan** kabi o'timchiz fe'llardan, shuningdek, ba'zi bir o'timli fe'llardan o'zlik nisbati yasalmaydi: **bor, yugur, o'qi** kabi.

Ba'zi fe'llarning esa aniq nisbati yo'q: **quvon, seskan** kabi.

3. MAJHULLIK NISBATI.

Majhullik nisbatida harakat to'ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib egaga o'tadi yoki haqiqiy bajaruvchi noma'lum bo'ladi. Masalan, Nazira yuvindi (bajaruvchisini topish mumkin). Shartnoma imzolandi (bajaruvchi noma'lum). Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi passiv konstruksiya deyiladi. Aniq nisbat formasidagi gap esa faol konstruksiya deyiladi.

Majhullik nisbati quyidagicha yasaladi:

- a) fe'l negiziga unlidan so'ng **–l**, undoshdan so'ng **–il** qo'shimchasini qo'shish bilan: **surka-l (di), ber-ildi** kabi;
- b) fe'l negiziga unlidan so'ng **–n**, undoshdan so'ng **–in** qo'shimchasini qo'shish bilan: **ula-n (di), ol-in (di)** kabi.

Majhullik nisbati ko'proq **-l (-il)** qo'shimchasi bilan yasaladi, ham o'zlik nisbati, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin bo'lganda **-l (-il)**, majhullik **-n (-in)** qo'shimchasi o'zlik nisbati yasaydi. Taran (o'zlik), taral (majhullik), tepin (o'zlik), tepil (majhullik) kabi.

1. Gapning mazmunidan (ayniqsa, fe'lning qanday ega bilan birikishidan) bilish mumkin. Masalan: Ot qoqildi, turg'un qoqildi gaplarida fe'l o'zlik nisbatida (harakatning bajaruvchisi – ot, Turg'un). Mix qoqildi. Qoziq qoqildi gaplarida esa fe'l majhullik nisbatida, harakatning bajaruvchisi noma'lum.

2. Majhullik nisbati yasalganda, majhullik nisbati qo'shimchasidan oldin ortirma nisbat qo'shimchasi kela olishidan, ammo o'zlik nisbati yasalganda, ortirma nisbat qo'shimchasi shu o'rinda kela olmasligidan bilish mumkin: mix qoq-tir-ildi kabi shakllanish faqat majhullik nisbatiga xosdir.

4. BIRGALIK NISBATI.

Birgalik nisbatida harakat bir necha shaxs (sub'yekt) tomonidan birgalikda bajariladi. O'quvchilar maktabga kelishdi. Bu gapda o'quvchilar ish-harakatni birgalikda bajarganligi anglashilyapti.

Birgalik nisbati quyidagicha yasaladi:

a) unli tovushdan so'ng **-sh**, undosh tovushdan so'ng **-ish** qo'shimchasini qo'shish bilan: so'zla - **sh** (di), ishla **-sh** (di), bor **-ish** (di), yoz **-ish** (di) kabi.

b) **-lash** (**-lajsh**) qo'shimchasi birgalik nisbatidagi fe'l yasaydi: bahs **-lash** (di), gap **-lash** (di) kabi.

Birgalik nisbatidagi fe'llar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Birgalik nisbati harakatni bajarishda sub'yektlarning faol ishtirok etishini ifodalaydi. Ular bir-birlariga ta'sir qilmaydi. Bunday gaplarda sub'yektlar va ayrim ega bilan, yoki ko'plik formadagi ega bilan ifodalanadi. Masalan: O'quvchilar sayohatga chiqishdi. Nilufar bilan Shoira qorbobo yasashdi.

2. Harakatni sub'yektlar o'zaro birgalikda bajarishini ifodalaydi. Bunday o'zaro birgalik ma'nosi o'zlik nisbati ottenkasiga ham ega bo'ladi. Chunki bajaruvchilarning harakati o'zaro bir-birlariga o'tadi, ta'sir qiladi. Bunda sub'yektlar (harakatni bajaruvchilar) tubandagicha ifodalanadi:

a) ko'plik formadagi olmosh yoki ot bilan: Bugun yangi asar xususida bahslashdik. Bu gapning egasi - biz olmoshi bo'lib, u tushib qolgan;

b) miqdor anglatuvchi aniqlovchisi bo'lgan ot ega bilan: ikki do'st o'qishda tanishgan edi.

3. Bir sub'yektning boshqa sub'yekt ishiga aralashishi, yordamlashishi ifodalanadi. Bunda asosiy bajaruvchi (sub'yekt) vositali to'ldiruvchi orqali ifodalanib, ikkinchi darajali sub'yekt esa ega orqali ifodalanadi. Masalan: Feruza Kamolaga paxta terishdi. Bunda harakat asosan, Kamola tomonidan bajarilib (Kamolaga-to'ldiruvchi) Feruza unga yordam beradi.

4. Sub'yektning ob'yekt (to'ldiruvchi ifodalagan shaxs) bilan bir ishni bajarganligi ifodalanadi. Nigora Nargiza bilan uzoq suhbatlashdi. Bunda asosiy bajaruvchi ega. Ikkinchi darajali bajaruvchi esa, vositali to'ldiruvchi bo'lib keladi.

5. ORTTIRMA NISBAT.

Orttirma nisbatda, birinchidan, sub'yekt o'z harakatini boshqa bir sub'yektning ta'siri, tazyiqi natijasida bajarilishini ifodalaydi. Bunday holda ikkita sub'yekt bo'lib, asosiy sub'yekt vositali to'ldiruvchi, ikkinchi darajali sub'yekt esa ega sifatida qo'llangan bo'ladi. Masalan: Zulfiya ko'ylagini chevarga tikdirdi. Bunda asosiy sub'yekt, ya'ni harakatni bajaruvchi shaxs (chevar) to'ldiruvchi, ikkinchi darajali shaxs (Zulfiya) ega vazifasida qo'llanilgan ikkinchi darajali sub'yektning harakati ancha umumiy, mavhum bo'ladi. Masalan: O'qituvchi bizga yangi kitoblar ko'rsatdi. Ko'rish harakati bunda to'ldiruvchi (biz) tomonidan bajarilgan bo'lib, ega (o'qituvchi) ko'rish harakatining bajarilishida ta'sir qiluvchi vositadir. Ikkinchi holatda esa, faqat bir sub'yekt mavjud bo'lib, uning harakati

ob'jektga o'tadi: U kitob keltirdi kabi. Orttirma nisbat fe'l negizlariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi:

a) oxiriga unli yoki **y, r** undoshlari bo'lgan negizlarga **-t** qo'shimchasini qo'shish bilan. **Masalan: uxla-t, qisqar-t, ko'pay-t** kabi;

b) oxirida jarangsiz undosh bo'lgan bo'g'inli negizlarga, shuningdek, ko'p bo'g'inli negizlarga **-tir** qo'shimchasini qo'shish bilan: **toptir, ayttir, undir** kabi;

d) oxirida **sh, ch, t** undoshlari bo'lgan negizlarga **-ir** qo'shimchasini qo'shish bilan: **ichir, tushir, qaytar** kabi;

e) oxirida undosh tovush bo'lgan ba'zi bir bo'g'inda negizlarga **-ar** qo'shimchasini qo'shish bilan: **chiqar, qaytar** kabi;

f) oxirida **k, m** undoshlari bo'lgan ba'zi negizlarga **-iz** qo'shimchasini qo'shish bilan: **oqiz, tomiz** kabi;

g) oxirida undosh tovush bo'lgan ba'zi bir negizlarga **-kaz, -qaz, -gaz, -g'az, -kiz, -giz, -qiz** qo'shimchalarini qo'shish bilan: **o'tkaz, yetkaz, o'tkiz, yutqiz, yurgiz, yutqaz** kabi;

h) **-sat (-sa[t])** qo'shimchasini qo'shish bilan: **ko'rsat** kabi;

i) **-iz, -az**. Bu qo'shimcha ham asli **-ir, -ar** qo'shimchalarining fonetik varianti bo'lib, undosh bilan tugagan fe'l asosida qo'shiladi: **og'iz, tegiz, tomiz** kabi;

j) **-tir, -t** qo'shimchalari parallel holda ham qo'llanadi: **o'zgartir, o'zgart** kabi;

k) fe'l asosida orttirma nisbat yasovchi qo'shimchalar ketma-ket qo'shilishi mumkin: yoz-yozdir-yozdirtir, ich-ichir-ichirtir kabi;

l) bir fe'l negizida turli nisbat qo'shimchalari qo'shilib kelishi mumkin: sev-sevin-sevintir, kel-keltir-kelishtir, yoz-yozdir-yozdiril (di) kabi. Bunday yasalişda fe'lning qaysi nisbatda ekanligi oxirgi qo'shimchaga qarab belgilanadi.

IV. BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR.

Fe'llar ish-harakatning bajarilishi haqida tasdiq yoki inkorni bildirishiga ko'ra bo'lishli va bo'lishsiz bo'ladi.

Ish-harakatning bajarilishi haqida tasdiqni ifodalovchi fe'llar bo'lishli fe'l deyiladi. Bo'lishlilik ma'nosini ifodalaydigan maxsus grammatik ko'rsatkichlar yo'q, fe'lning bo'lishsiz ko'rsatkichi qatnashmagan shakli bo'lishli fe'l sanaladi: ol, o'qi, yozgan, borguncha, ishlay, aytsa, ko'rib chiqqan, javob ber kabi.

Ish - harakatning bajarilishi haqidagi inkorni bildiruvchi (bajarilmasligini ifodalovchi) fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi. Masalan: gapirmadim, ko'rma, ko'rgan emas, ko'rgani yo'q.

O'zbek tilida bo'lishsiz fe'llar quyidagicha yasaladi:

1. **-ma** qo'shimchasi bilan. Bunda **-ma** qo'shimchasi fe'lining leksik ma'no ifodalovchi qismiga qo'shiladi: o'qima, o'qimagan, aytmasa, ko'rib chiqma. Birdan ortiq fe'llardan tuzilgan murakkab fe'llarda **-ma** qo'shimchasi odatda so'nggi komponenti - ko'makchi fe'llarga qo'shiladi. Masalan: ko'rib chiqma, olib kelma, o'qib ko'rma, olib qola ko'rma. Murakkab fe'lining har ikki komponentiga - **ma** qo'shimchasi qo'shilsa, fe'l bo'lishli fe'lga aylanadi. Masalan: o'qimay qo'ymadi - o'qiydi, aytmay qo'ymaydi-aytadi, bormay qo'ymaydi-boradi kabilar.

Eslatma: **-ma** qo'shimchasi **-moq, -sh (-ish)** bilan yasalgan harakat nomlari, **-gani (-kani, -qani)** bilan yasalgan maqsad ravishdoshi, **-mish** bilan yasalgan sifatdoshga qo'shilmaydi. **Masalan:** Bobom shu kuni yuz yoshga tolmishdi.

2. Sifatdosh, ravishdoshning bo'lishsiz formasi **emas** so'zi bilan ham yasalishi mumkin. Bunday holatda ish-harakatning bajarilishi inkor qilinadi. Masalan: borgan emas, boradigan emas, borgancha emas, borib emas.

3. **Yo'q** so'zi bilan ish-harakatning mavjud emasligini bildirish orqali sifatdoshning bo'lishsiz formasi yasaladi. Masalan: ko'rgani yo'q, borgan yo'q.

4. **-Na** yuklamasi gapdagi uyushiq bo'laklar anglatgan ish-harakatining inkor qilish orqali bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydi. **Masalan:** na quduq, na ariq ko'rinadi. (I.R) Bo'lishsiz forma **-ma** qo'shimchasi orqali yasalganda na so'zi bo'lishsizlikni kuchaytiradi. **Masalan:** na o'qimaydi, na yozmaydi.

5. Joriy tilda bo'lishsizlik maxsus intonatsiya, fe'lga yuklama qo'shish bilan ham yasaladi. Fe'lni takrorlash orqali ifodalanishi ham mumkin. **Masalan:** ishlaydi-ya-ishlaydi (ishlamaydi), oladi-ya-oladi (albatta, olmaydi).

V. FE'L ZAMONLARI.

Fe'ning muhim grammatik belgilaridan biri ish-harakatning zamonini ko'rsatishidir.

Zamon ma'nosi ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabati bilan aniqlanadi. Fe'ldagi ish-harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, nutq so'zlanib turgan paytda yoki nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. Shunga ko'ra fe'l zamonlari 3 ko'rinishga ega:

1. O'tgan zamon fe'llari.
2. Hozirgi zamon fe'llari.
3. Kelasi zamon fe'llari.

1. O'tgan zamon fe'llari ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi. O'tgan zamon fe'li ma'nosiga ko'ra 5 turga bo'linadi:

1. Yaqin o'tgan zamon fe'li.
2. Uzoq o'tgan zamon fe'li.
3. O'tgan zamon hikoya fe'li.
4. O'tgan zamon davom fe'li.
5. O'tgan zamon maqsad fe'li.

1. Yaqin o'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin, ammo so'zlovchining ko'z oldida yoki uning faol ishtiroki bilan aniq bajarilgan, bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: yozdim, yozding, yozdi, yozdik, yozdingiz, yozdilar. Men bu kitobni kecha kutubxonadan oldim.

Yaqin o'tgan zamon fe'li ma'nosi fe'l o'zak-negiziga **-di** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi.

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	bor-di-m	bor-di-k
II shaxs	bor-di-ng	bor-di-ngiz
III shaxs	bor-di	bor-di-lar

2. Uzoq o'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan yoki bajarilmaganligini anglatadi. Masalan: Shoiraning akasi Toshkentda o'qigan. Uzoq o'tgan zamon ma'nosi sifatdash yasovchi-**gan** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi.

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	yoz-gan-man	yoz-gan-miz
II shaxs	yoz-gan-san	yoz-gan-siz
III shaxs	yoz-gan	yoz-gan-lar

Uzoq o'tgan zamonning aniq eslash (yoki eslatish) va eshitganlik kabi modal ma'no ottenkalariga ega bo'lgan formalari ham bor.

1. Bo'lib o'tgan ish-harakatni aniq eslash (yoki eslatish) ma'nosi o'tgan zamon sifatdashiga edi (qisqa formasi **-di**) to'liqsiz fe'lni tushlab biriktirish orqali ifodalanadi. **Masalan:** Men qachondir qishloqdagi holamnikiga borgan edim.

2. Bo'lib o'tgan ish-harakatni kutilmaganda eslash (eslatish) yoki bu haqda boshqa shaxsning fikriga qo'shilish ma'nosi o'tgan zamon sifatdashiga ekan (qisqa formasi **-kan**) to'liqsiz fe'lni tushlab biriktirish orqali ifodalanadi. **Masalan:** Men bu romanni o'qigan ekanman.

3. Bo'lib o'tgan ish-harakatni so'zlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi (shuning uchun gumonsirash, kesatish) ma'nosi o'tgan zamon sifatdashiga emish (qisqa formasi-mish) to'liqsiz fe'lni tushlab biriktirish bilan ifodalaydi.

Shuning uchun unda voqeaning odatdan tashqari yuz berganlik ottenkasi bo'ladi. Masalan: Qaytib kelgunimizcha yana bir qarich qor tushibdi.

3. O'tgan zamon hikoya fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari qisqa vaqt ichida, kutilmaganda bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni hikoya qilish, eslash orqali ifodalaydi: Demak, Yo'ldosh aka uni tag'in eslabdi (H.G').

O'tgan zamon hikoya fe'li **-b (-ib)** qo'shimchali ravishdoshlarni qo'shish va tushlash, shuningdek, ularga edi to'liqsiz fe'lini biriktirish va tushlash bilan hosil qilinadi.

Birlik.	Ko'plik.
I shaxs o'qi-b-man	o'qi-b-miz
II shaxs o'qi-b-san	o'qi-b-siz
III shaxs o'qi-b-di	o'qi-b-lar
Yoki	
I shaxs yozib edim	yo'zib edik
II shaxs yozib eding	yo'zib edingiz
III shaxs yozib edi	yo'zib edilar.

Eslatma: III shaxsdagi **-di** qo'shimchasi yaqin o'tgan zamon fe'lidagi **-di** bilan shakllangan bo'lib, ularning tarixi ham ma'nosi va vazifalari ham boshqa-boshqadir.

Ol-**di** formasidagi **-di (-dik, -duk)** qo'shimchasidan tuzilgan, ammo ol-ib-**di** formasidagi **-di** esa **-dir** qo'shimchasining qisqargan shakli bo'lib, bu qo'shimcha turur (durur) so'zidan kelib chiqqan.

4. O'tgan zamon davom fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari davomli bo'lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni ifodalaydi: Quyosh g'uborsiz porlar edi. (O.)

O'tgan zamon davom fe'li ikki xil bo'ladi.

1. Doimiy harakat yoki holatni bildiruvchi o'tgan zamon davom fe'li. U ma'lum vaqt tushunchasi bilan chegaralanmagan davomiylikni ifodalaydi. Masalan: Nigora tinimsiz kitob o'qir edi. Fe'lining bu formasi **-r (-ar)** qo'shimchasi bilan yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini tushlab biriktirish bilan yasaladi.

Birlik.	Ko'plik.
I shaxs yoz-ar edim	yo'z-ar edik
II shaxs yoz-ar eding	yo'z-ar edingiz
III shaxs yoz-ar edi	yo'z-ar edi (lar)

2. Aniq jarayonni bildiruvchi o'tgan zamon davom fe'li o'tgan zamondagi ma'lum bir vaqtida yoki ikkinchi bir ish-harakat paytida yuz berib turgan ish-

harakatni, aniq jarayonni ifodalaydi. Sen u payt uxlayotgan eding. Ish kundankunga avjiga chiqmoqda edi. Fe'lining bu formasi quyidagicha yasaladi:

a) **-yotgan** qo'shimchasi yordamida yasalgan hozirgi zamon sifatdoshiga edi to'liqsiz fe'lini tuslab biriktirish bilan.

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	yoz-a-yotgan edim	yoz-a-yotgan edik
II shaxs	yoz-a-yotgan eding	yoz-a-yotgan edingiz
III shaxs	yoz-a-yotgan edi	yoz-a-yotgan edi (lar)

b) **-moqda** qo'shimchasiga edi to'liqsiz fe'lini tuslab biriktirish bilan

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	o'qi-moqda edim	o'qi-moqda edik
II shaxs	o'qi-moqda eding	o'qi-moqda edingiz
III shaxs	o'qi-moqda edi	o'qi-moqda edi (lar)

5. O'tgan zamon maqsad fe'li. Nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi: Kitobni kutubxonadan olmoqchi edim. Shuning uchun kutubxonaga boradigan edim.

O'tgan zamon maqsad ma'nosi quyidagicha ifodalanadi:

a) **—moqchi** qo'shimchasiga **—edi** to'liqsiz fe'lini tuslab biriktirish bilan:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	bor-moqchi edim	bor-moqchi edik
II shaxs	bor-moqchi eding	bor-moqchi edingiz
III shaxs	bor-moqchi edi	bor-moqchi edi (lar)

b) **—digan** qo'shimchasi yordamida yasalgan kelasi zamon sifatdoshiga **—edi** to'liqsiz fe'lini tuslab biriktirish bilan:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	yoz—a—digan edim	yoz—a—digan edik
II shaxs	yoz—a—digan eding	yoz—a—digan edingiz
III shaxs	yoz—a—digan edi	yoz—a—digan edi (lar)

II. HOZIRGI ZAMON FE'LI.

Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan yoki bajarilmayotganligini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe'li ma'nosiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda va indan keyin sodir bo'ladigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Hozirgi – kelasi zamon fe'li negiziga **–a (-y)** ravishdosh yasovchi qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi. **Masalan**, yozaman, yozasan, yozadi, o'qiydi, o'qiyman, o'qiysan. Men maktabda mehr bilan ilm olaman.

Tushlanishi quyidagicha bo'ladi:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	bor–a–man	bor–a–miz
II shaxs	bor–a–san	bor–a–siz
III shaxs	bor–a–di	bor–a–di (lar)

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs.	ishla–y–man	ishla–y–miz
II shaxs.	ishla–y–san	ishla–y–siz
III shaxs.	ishla–y–di	ishla–y–di (lar)

Bugun qarindoshlar biznikiga keladi. Bunda ish-harakat nutq so'zlangan paytdan keyin bajariladi. Xalq nima qilmasin, to'g'ri qiladi. Bunda doimiy harakat ifodalanagan.

2. Hozirgi zamon davom fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda aniq davom etib turganini ifodalaydi. Bu harakat nutq so'zlanib turgan paytdan oldin boshlangan bo'lishi, nutq bilan bir vaqtda yuz berishi mumkin. Masalan, injinerlar mukammal terim mashinasini yaratish uchun qattiq ishlayapti (O.). Erta bahor, daraxtlar kurtak chiqarmoqda (J.Sharipov).

Hozirgi zamon davom fe'li quyidagicha ifodalanadi:

a) Hozirgi-kelasi zamon ravishdoshiga **–yap** qo'shimchasini qo'shish bilan:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	yoz–a–yap–man	yoz–a–yap–miz
II shaxs	yoz–a–yap–san	yoz–a–yap–siz
III shaxs	yoz–a–yap–ti	yoz–a–yap–ti (lar)

Eslatma:

- 1) **–yap** qo'shimchasi oldidan keluvchi **–a (-y)** ravishdosh yasovchisini yozmaslik rasm bo'layotir;

- 2) III shaxs qo'shimchasi **–di** o'zidan oldingi jarangsiz **-p** tovushining ta'siri bilan jarangsizlanib **–ti** shaklida talaffuz qilinadi va shunday qilinadi: o'qiyapti kabi.

b) **–moqda** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan:

Birlik.

Ko'plik.

I shaxs o'qi–moqda–man o'qi–moqda–miz

II shaxs o'qi–moqda–san o'qi–moqda–siz

III shaxs o'qi–moqda o'qi–moqda (lar)

v) Hozirgi zamon ravishdoshiga **–yotib, –yotir** qo'shimchalarini qo'shish va tushlash bilan:

Birlik.

Ko'plik.

I shaxs bor–a–yotib–man bor–a–yotib–miz

II shaxs bor–a–yotib–san bor–a–yotib–siz

III shaxs bor–a–yotib–di bor–a–yotib–di (lar)

Birlik.

Ko'plik.

I shaxs o'qi–yotir–man o'qi–yotir–miz

II shaxs o'qi–yotir–san o'qi–yotir–siz

III shaxs o'qi–yotir o'qi–yotir (lar)

Bu forma hozirgi adabiy tilda kam ishlatiladi. Shuningdek, yot, tur, yur, o'tir ko'makchi fe'llari yordamida ham hozirgi zamon davom fe'li ma'nosi ifodalanadi. Masalan, o'qib yotibman, o'qib turibman, o'qib o'tiribman, o'qib yuribman kabi.

3. KELASI ZAMON FE'LI.

Kelasi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalaydi. Kelasi zamon fe'li ma'nosiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Kelasi zamon gumon fe'li.
2. Kelasi zamon maqsad fe'li.

1. **Kelasi zamon gumon fe'li –r (-ar)** qo'shimchasi qo'shib yasalgan sifatdashni tushlash bilan ifodalanadi: o'qirman, ishlarman, kellarman kabi. masalan:

Shikoyatim, dardim, arzimni,
Qulog'ingga so'zlarman mayin.

(H. Olimjon)

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	yoz—ar—man ishla—r—man	yoz—ar—miz ishla—r—miz
II shaxs	yoz—ar—san ishla—r—san	yoz—ar—siz ishla—r—siz
III shaxs	yoz—ar ishla—r	yoz—ar (lar) ishla—r (lar)

Eslatma: kelasi zamon gumon fe'lining arxaik formasi ol—ur—man shaklida yasaladi. Bu shakl hozir qat'iylik ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladi.

2. **Kelasi zamon maqsad fe'li** nutq so'zlangan paytdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi va u asosan, **-moqchi, -digan** qo'shimchalarni olgan fe'l formasini tushlash orqali yasaladi: **Men yozgi ta'tilda Toshkentga bormoqchiman.**

Kelasi zamon fe'li nutqda ikki xil ifodalanadi:

a) **-moqchi** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	o'qi—moqchi—man	o'qi—moqchi—miz
II shaxs	o'qi—moqchi—san	o'qi—moqchi—siz
III shaxs	o'qi—moqchi	o'qi—moqchi (lar)

b) Hozirgi zamon ravishdoshiga **-digan** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	bor—a—digan—man	bor—a—digan—miz
II shaxs	bor—a—digan—san	bor—a—digan—siz
III shaxs	bor—a—digan	bor—a—digan (lar)
	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	ishla—y—digan—man	ishla—y—digan—miz
II shaxs	ishla—y—digan—san	ishla—y—digan—siz
III shaxs	ishla—y—digan	ishla—y—digan (lar)

Kelasi zamon maqchad fe'li **-moqchi** qo'shimchasi bilan yasalganda mo'ljal, istak ottenkalari kuchliroq bo'lsa **-digan** qo'shimchasi bilan yasalganda zarurlik, qat'iylik ottenkasi kuchli bo'ladi. Bu kabi ma'nolar harakat nomiga kerak, zarur, lozim, darkor so'zlarini birlashtirish bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: **olishim kerak, o'qishim zarur, borishim darkor** kabi.

Kelasi zamon fe'li ba'zan **-jak, -ajak** qo'shimchasi bilan ham yasaladi. Ammo bu forma hozirgi adabiy til uchun harakterli emas. Masalan: **kelajak, yozajakman, bo'lajak** kabi.

FE'L VA UNING MODAL SHAKLLARI.

Fe'ldan anglashilgan ish-harakatning ob'yektiv borliqqa munosabatini, qay yo'sinda (kuchli, kuchsiz, davomli, takrorlanib, birdan) bajarilishi kabi modal munosabatni ifodalovchi formalar **fe'lining modal formalari** deyiladi.

Modal ma'nolar maxsus qo'shimchalar, mayl formalari, ko'makchi va to'liqsiz fe'llar orqali ifodalanadi.

I. Fe'lining modal forma yasovchi qo'shimchalari ikki xil ma'noga ega:

1) Fe'l negiziga qo'shib, negizdan anglashilgan harakatning kuchli va davomli bo'lishini ifodalaydi. Bular: **-kila, -gila, -qila, -la, -ala, -ka, -ga, -qa, -ra** kabilar.

Masalan: **tepkila, titkila, yugurgila, ezg'ila, qaytala, cho'zg'ila, quvla, savala, ishqala, qashla, quvala, surka, surga, chayqa, gangira** kabilar.

2) Fe'l negiziga qo'shib, harakatning kuchsizligini, to'la bajarilmasligini ifodalaydi. Bular: **-inqira, -nqira, -msira, -imsira, -qilla** kabilar. Masalan: **oqarinqira, to'xtanqira, yig'lamsira, kulimsira, chopqilla** kabilar.

VI. FE'L MAYLLARI.

Ish-harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi kategoriya **mayl** deyiladi.

Mayl fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish xususiyatini, imkoniyatini, ya'ni real voqelikka, sharoitga bog'liqligini ifodalaydi. Masalan: yozdim, borganman, fe'llari ish-harakatni aniq bajarilganligini, yozsang, borsangiz - ish-harakatning bajarilishi haqida shart, istak, maslahatni, yoz, borsin esa ish-harakatning bajarilishi haqidagi buyruqni anglatadi.

Mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatini ifodalab, grammatik zamon va grammatik shaxs (bajaruvchi) bilan uzviy bog'lanadi. Bu uch hodisa fe'lining gapda kesim vazifasini bajarishidan predikativlik funktsiyasidan kelib chiqadi.

O'zbek tilida asosan, 4 ta mayl bor.

1. Aniqlik (ijro) mayli.
2. Buyruq-istak mayli.
3. Shart mayli.
4. Maqsad mayli.

1. ANIQLIK (IJRO) MAYLI.

Ish-harakatning uch zamondan birida haqiqatdan ham bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalagan fe'l **aniqlik maylidagi** fe'l deyiladi. Masalan: keldim, kelmadim, kelganman, kelmaganman, kelyapman, kelmoqdaman kelayotirman, kelmoqchiman kabi. Aniqlik mayli fe'l zamonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, asosan, darak gapning kesimi vazifasida qo'llaniladi.

Aniqlik mayli fe'lning ravishdosh, sifat-dosh formalarini, ba'zan sof fe'llarni tushlash bilan ifodalanadi.

Masalan: o'qibman, bormabsan, o'qimabsan, yozadiganman, o'qiyman, o'qiydiganman kabi.

2. BUYRUQ-ISTAK MAYLI.

Ish-harakatning bajarish — bajarmaslik haqida ***buyurish, istash, so'rash, maslahat, iltimos, chaqiriq, da'vat, undash*** kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Buyruq - istak maylining da'vat ma'nolarini II va III shaxslari buyruq, maslahat, o'rni bilan iltimos kabi ma'nolarni ifodalaydi. Binobarin, so'zlovchi (I shaxs) o'ziga-o'zi buyura olmaydi. U bevosita II shaxsga buyuradi (bor, o'qi, kel, yur) III shaxsga esa II shaxs orqali buyuradi (borsin, o'qisin, ishlasin) II shaxsda buyruq o'rniga iltimos ifodalanganda **—gin** orqali (arxaik) formasi — **gil** qo'shimcha qo'shiladi.

Masalan: ***o'qigin, ishlagin*** kabi.

Yoki: ***Kechir meni, nozli malagim,***

Seni maqtay olmasim tayin.

Senga shuncha chiroy bergan kim?

Aytib bergin, uni maqtayin. (H.O.).

Buyruq - istak mayli asosan, kelasi zamonga oid ish-harakat tushunchasini anglatadi.

3. SHART MAYLI.

Bu mayl biror bir ish-harakatning yuzaga chiqishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Shuningdek, ish-harakatni bajarish-bajarmaslik haqidagi istak, maslahat, xohish ma'nolarini ifodalaydi.

Shart mayli — **sa** qo'shimchasi bilan yasilib, asosan, ikki zamon formasiga ega:

1. Kelasi zamon shart — istak fe'li.

2. O'tgan kelasi zamon shart fe'li.

Kelasi zamon shart-istak fe'li asosan, nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilishi shart qilib qo'yilgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda shart fe'li

ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Masalan: **Ekin yaxshi parvarish qilinsa, hosil mo'l bo'ladi.** Yoki: **Bahor kelsa, atrof ko'rkam bo'ladi.**

Kelasi zamon shart-istak ma'nosi —**sa** qo'shimchasini qo'shish va tushlash bilan ifodalanadi.

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	<i>bor—sa—m</i>	<i>bor—sa—k</i>
II shaxs	<i>bor—sa—ng</i>	<i>bor—sa—ngiz</i>
III shaxs	<i>bor—sa</i>	<i>bor—sa—lar</i>

Yoki:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	<i>ishla—sa—m</i>	<i>ishla—sa—k</i>
II shaxs	<i>ishla—sa—ng</i>	<i>ishla—sa—ngiz</i>
III shaxs	<i>ishla—sa</i>	<i>ishla—sa—lar</i>

Kelasi zamon shart-istak fe'li sodda gapning kesimi vazifasida ishlatilganda **istak, iltimos, maslahat** kabi ma'nolarni ifodalaydi: **Suvlar oqsa. Shaboda essa.**

Kelasi zamon shart-istak fe'li kerak, bo'lmoq kabi modal ma'noli so'zlar bilan qo'llanilganda gumon, taxmin, noaniqlik ma'nolarini anglatadi. Masalan: **borsam kerak, gapirsa bo'ladi, o'qisam kerak** kabi.

Yoki: **Ertaga yomg'ir yog'sa kerak.**

O'tgan kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan ilgari bajarilishi istalgan yoki shart bo'lgan ish-harakatni anglatadi. Bu forma —**sa** qo'shimchasini qo'shish va tushlash, so'ngra edi to'liqsiz fe'lini keltirish bilan yasaladi:

	Birlik.	Ko'plik.
I shaxs	<i>o'qi—sa—m edi</i>	<i>o'qi—sa—k edi</i>
II shaxs	<i>o'qi—sa—ng edi</i>	<i>o'qi—sa—ngiz edi</i>
III shaxs	<i>o'qi—sa edi</i>	<i>o'qi—sa—lar edi</i>

O'tgan — kelasi zamon shart fe'li sodda gapning kesimi vazifasida qo'llanilganda, kelasi zamon istak ma'nosini ifodalaydi.

Masalan: **O'zing haqingda aytilgan gaplarni eshitsang edi.**

Bu fe'l ergash gapning kesimi bo'lib kelganda, o'tgan zamon shart ma'nosini ifodalaydi. Masalan: **O'sha aytilgan ishni qilsang edi, bu mashmashalar bo'lmas edi.**

4. **Maqsad mayli.** Maqsad maylidagi fe'llar ish-harakatni bajaruvchi shaxsning maqsadi, mo'ljali, niyyatini bildiradi: ***llyos o'zi chizgan rasmini o'qituvchisiga ko'rsatmoqchi bo'lib kutib turgan ekan.***

Maqsad maylidagi fe'llar bo'l, edi yordamchi fe'llar bilan qo'llanganda maqsad ma'nosiga zamon ma'nosi qo'shiladi, ya'ni ular o'tgan, hozirgi va kelasi zamonni ham ko'rsatadi.

O'tgan zamon. O'tgan zamon bo'lmoq ko'makchi fe'li yoki edi to'liqsiz fe'li bilan ifodalanadi, tuslovchi qo'shimchalarni bo'ldi, edi so'zlari oladi. Masalan:

Bo'ldi ko'makchi fe'li bilan:

Men so'ramoqchi bo'ldim.

Sen so'ramoqchi bo'lding

U so'ramoqchi bo'ldi.

Biz so'ramoqchi bo'ldik.

Siz so'ramoqchi bo'ldingiz

Ular so'ramoqchi bo'ldilar

Edi to'liqsiz fe'li bilan:

Men aytmoqchi edim.

Sen aytmoqchi eding

U aytmoqchi edi.

Biz aytmoqchi edik.

Siz aytmoqchi edingiz.

Ular aytmoqchi edilar.

Nutqda **emas** to'liqsiz fe'li qisqarib — **mas** shaklida ham qo'llanadi. Bunday holda maqsad maylidagi fe'lga qo'shib yoziladi: ***kelmoqchi emasman — kelmoqchimasman, kelmoqchi emassan — kelmoqchimassan, kelmoqchi emas — kelmoqchimas.***

Hozirgi zamon. Hozirgi zamon ma'nosi bo'lmoq ko'makchi fe'lga —**yap**, moqda, yoki —**(a)** yotir qo'shimchasini qo'shish bilan ifodalanadi. Shaxs — **son** qo'shimchalari **bo'l** fe'lga qo'shiladi.

Birlik.

Ko'plik.

Men ko'rmoqchi bo'lyapman

Biz ko'rmoqchi bo'lyapmiz

Sen ko'rmoqchi bo'lyapsan

Siz ko'rmoqchi bo'lyapsiz

U ko'rmoqchi bo'lyapti

Ular ko'rmoqchi bo'lyaptilar

Maqsad maylidagi fe'l zamon ma'nosini ifodalovchi biror vosita bilan qo'llanmaganda, u bildirgan maqsad, niyyat hozirgi vaqtga oid bo'ladi. Masalan: ***Bahodir mehnat ta'limiga qiziqayotir, u hunar-texnika bilim yurtiga kirmoqchi.***

Kelasi zamon. Maqsad maylining kelasi zamon ma'nosi shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlangan bo'l fe'lini hozirgi-kelasi zamon shaklida keltirish bilan ifodalanadi. Masalan:

Birlik.

Men o'ynamoqchi bo'laman

Sen o'ynamoqchi bo'lasan

U o'ynamoqchi bo'ldi

Bu fe'lning bo'lishsiz shakli

Ko'plik.

Biz o'ynamoqchi bo'lamiz

Siz o'ynamoqchi bo'lasiz

Ular o'ynamoqchi bo'ldilar

emas so'zi yordami bilan ifodalanadi:
o'ynamoqchi emasman, o'ynamoqchi emassan.

VII. KO'MAKCHI FE'LLAR.

Ko'makchi fe'llar. Ko'makchi fe'llar harakatning turlicha xarakteristikasini ko'rsatuvchi, shuningdek, turli modal ma'nolarni ifodalovchi formalarini yasash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan (mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llaniladigan) fe'l yo'q.

Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko'makchi fellar bog'lanib kelgan fe'l **yetakchi fe'l** deyiladi.

Masalan: o'qib berdi, borib keldi, yozib oldi — fe'llari esa ko'makchi fe'llardir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi:

Boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, yet, ko'r, qara, boq, yoz.

Ko'makchi fe'llarning har biri o'ziga xos ma'no va boshqa xususiyatlarga ega. Lekin ular uchun umumiy xolatlar ham bor.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan asosan, — **(i) b** yoki **—a, -i** ravishdosh yasovchilar yordamida birikadi. Ba'zi ko'makchi fe'llargina yetakchi fe'l bilan grammatik forma yordamisiz birikadi.

Ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdosh formasi orqali birikkanda, tuslovchi formalar ko'makchi fe'lga grammatik forma yordamisiz bir xil formada bo'ladi.

Masalan: o'qib berdim, borib keldim, yoza oldim, yoza olding, yoza oldi, yozdim—oldim, yozding-olding, yozdi-oldi kabi.

Ba'zi ko'makchi fe'llar keltirilgan misoldagi kabi yetakchi fe'lga har uch formada (ya'ni ***o'qib chiqdi, yoza oldi, yozdi-oldi***) birikadi. Ba'zilar esa faqat ravishdosh formasi yordamida birikadi: o'qib chiqdi, yoza boshladi. Bulardagi chiq, boshla ko'makchi fe'llari yetakchi fe'l bilan o'qidi-chiqdi, yozdi-boshladi formasida birikmaydi.

Ba'zi ko'makchi fe'lning tahlili:

1. **Boshla**. Bu ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdosh yasovchi **—a, -b** qo'shimchasi yordamida birikadi va harakatning boshlanishi ma'nosini bildiradi: ***Yoza boshladi, ishlay boshladi.***

2. **Yot**. Bu ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan **— (i) b** ravishdosh formasi vositasida birikib, davomiylilikni ifodalaydi. Masalan: ***Daryodan suv chiqarishga urinib yotishibdi. (P.T.)***

3. **Tur**. Bu ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan ravishdoshning har ikki formasida birika oladi.

a) Ravishdoshning **—(i)b** qo'shimchasi bilan birikkanda, harakatning ma'lum aniq (chegaralangan) vaqt ichida davom etishini bildiradi.

b) **—a, -i** qo'shimchasi bilan birikkanda, harakatning vaqtincha biror boshqa harakat, hodisa yuz berguncha davom etishi ma'nosini ifodalaydi. Masalan:

1. ***Ko'rinib turibdi, yozib o'tiribdi.***

2. ***Bora tur, qo'ya tur, ishlay tur, o'qiy tur*** kabi.

VIII. TO'LIQSIZ FE'LLAR.

To'liqsiz fe'llar ish-harakat ma'nosiga ega bo'lmay, grammatik modallik ma'nolarinigina ifodalaydi.

To'liqsiz fe'llar asli bir **E** (arxaik forma yer) fe'l negizining turli formalari bo'lib (***edi, ekan, emish***), ular hozirgi tilda ayrim-ayrim so'zlar sifatida tushuniladi. Bu so'zlar boshqa fe'l formalari bilan birgalikda fe'lning turli formalarini hosil qiladi.

Masalan: ***borgan edim, borib edi, borar emish, borgan emish, borgan ekan*** kabi.

Edi, ekan, emish so'zlari qisqa formada **—di, -kan, -mish** kabi ham ishlatiladi. Masalan: ***berardi, o'qirmish, aytarkan.***

To'liqsiz fe'llar tuslanadi: ***edim, eding, edi, edik, edingiz, edilar*** kabi.

To'liqsiz fe'llar fe'l bo'lmagan so'zlarga ham qo'shilib, ularning kesim vazifasini bajarayotganini ko'rsatadi. Masalan: ***O'ktam injener edi. Otam o'qituvchi edi.***

E fe'llining esa (shart) va emas (kelasi zamon sifatdoshining bo'lishsiz) formalari ham mavjud bo'lib, ular tamomila yordamchi so'zga aylanib ketgan. Ular ish-harakat ma'nosiga ham, zamon ma'nosiga ham ega emas. Bu so'zlarning birinchisi (esa) hozir bog'lovchiga, ikkinchisi (emas) bo'lishsiz forma yasovchiga aylangan.

Masalan: **Arava tinmay g'ijirlardi, yo'lovchilar esa so'zsiz borishardi** (S.Z.). **Yozgan emas, borgan emas** kabi

IX. FE'LLARNING YASALISHI HAQIDA MA'LUMOT.

1. Ot, sifat, ravish so'z turkumlari singari fe'llar ham boshqa so'z turkumlaridan yasaladi. Fe'llar asosan, ikki xil yo'l bilan yasaladi:

- a) morfologik yoki fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida;**
- b) sintaktik (kompozitsiya) yoki so'zlarni qo'shish yordamida fe'l yasash.**

2. Fe'llarning morfologik usulda yasalishi.

Maxsus fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida fe'llarning yasalishi **morfologik usul** deyiladi.

Morfologik, ya'ni fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaladi. Masalan: **ishla, terla, so'zla, kechik, guldira, chuxla** kabi. fe'l yasovchi qo'shimchalar tubandagilar:

1. **—la** ot negiziga qo'shilib, o'sha negizdan anglashilgan predmetga ega qilish (**qitiqla, bolala, tuzla, moyla**), o'sha predmetni vujudga keltirish, yaratish (**gulla, bolala, qo'zila**), o'sha predmet holatiga o'tish (**muzla**), o'xshash bo'lish (**cho'lla**), o'lchash (**metrla, kilola**), o'ringa taalluqli bo'lish (**osmonla, yerla**), negizdan anglashilgan paytga aloqador bo'lish (**qishla**) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu qo'shimcha sifat, ravish va taqlidiy so'zlar negizlariga qo'shilganda, negizdan anglashilgan tusga, holatga o'tish ma'nosini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: **yaxshila, oqla, tozala, tezla, sekinla, paqirla, gumburla, qisirla** kabi. Undovga qo'shilgan **—la** qo'shimchasi undovdan anglashilgan ruhiy holatni, buyruq-xitobni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: **uxla, tufla, chuxla** kabi. Kishilik olmoshlaridan ham ba'zan **—la** qo'shimchasi qo'shilishi bilan fe'l yasaladi. Masalan: **sizla, senla** kabi.

2. **—a (-la)** qo'shimchasi ot, sifat va taqlidiy so'z negiziga qo'shilib, yuqorida **-la** qo'shimchasi uchun sanalgan kabi ma'nolardagi fe'llarni yasaydi: **osha, qona, ata, tuna, o'yna, sana, bo'sha, yasha, qiyna, guldira, xo'ngra, (xungira) yaltira** kabilar.

3. **—y (-ay)** qo'shimchasi ot, sifat, ravish negizlariga qo'shilib, negizdan anglashilgan holatga kirish ma'nosini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: **kuchay, o'lgay, qoray, ozay, sarg'ay** kabi.

4. **—r (-ar)** qo'shimchasi sifat negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan holatga kirish harakatini ifodalaydigan fe'l yasaydi. Masalan: **o'zgar, qizar, oqar, qisqar, eskir** kabi.

5. **–ik (-iq)** qo'shimchasi ot, ravish, son undovlardan negiz anglatgan holda ega bo'lish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: **yo'liq, kechik, birik, hayiq** kabi.

6. **–ir (-ur)** qo'shimchasi ot va undovlarga qo'shilib, negizdan anglashilgan ishni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: **gapir, tupur** kabi

7. **–sira** qo'shimchasi ot, sifat va olmoshlardan negiz anglatgan predmetni istash, o'sha xususiyatga ega bo'lish kabi ma'nolardagi fe'lni yasaydi. Masalan: **suv-sira, qonsira, uyqusira, sensira** kabi.

8. **–i** qo'shimchasi ot va sifat negizlariga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmet yoki holatga ega bo'lish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: **changi, tinchi, boyi** kabi.

9. **–qir,** illa qo'shimchalari taqlidiy so'zlardan o'sha ishni bajarish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Masalan: **hayqir, o'shqir, piqilla, vichilla, taqilla, chirqilla, chirilla, guvilla** kabi.

10. **–ka** affiksi ot negiziga qo'shilib, negizdan anglashilgan predmetni sezish ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Bu qo'shimcha unumsiz bo'lib, ayrim so'zlarga yasaladi. Masalan: **iska.**

11. **–sa** qo'shimchasi ham **–ka** qo'shimchasi kabi negizdan anglashilgan predmetni istash ma'nosidagi fe'lni yasaydi. Bu qo'shimcha ham unumsizdir. Masalan: **suvsa** kabi.

12. **–dan, -lash** qo'shimchalari ayni bir vaqtda ham fe'l, ham fe'lning biror nisbat formasini yasaydi. Bu qo'shimchalar asosan, ot, sifat, son dan fe'l yasaydi. Masalan: **otlan, jonlan, zavqlan, ajablan, lazzatlan, bahslash, gaplash, birlash, ikkilan, shodlan** kabilar.

3. Fe'llarning sintaktik usulda yasalishi.

Sintaktik usul bilan murakkab fe'l hosil qilinadi. Murakkab fe'llarning ikkinchi qismi har vaqt fe'l bo'lib, birinchi qismi fe'l bo'lishi ham, fe'ldan boshqa so'z turkumi, masalan, ot, sifat va boshqalar bo'lishi mumkin. Murakkab fe'llar birinchi qismning fe'l yoki fe'ldan boshqa so'z turkumiga oid bo'lishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

a) **birinchi tip murakkab fe'llar;**

b) **ikkinchi tip murakkab fe'llar.**

Birinchi tip murakkab fe'llar fe'l bo'lmagan so'zlarning fe'l bilan birikishidan tuziladi. Masalan, himoya qilmoq, oh urmoq, qo'l qo'ymoq, hurmat qilmoq, qaror qil, ado et kabi. Birinchi tip murakkab fe'llarni yasashda et, ayla, qil, bo'l, ko'makchi fe'llari, shuningdek, ber, qo'y, sol, chek, sur, ur kabi fe'llar ishtirok

etadi. Masalan, javob ber, qo'l qo'y, yod ol, nazar sol, imzo chek, umr sur, oh ur kabilar.

Ikkinchi tip murakkab fe'llar kamida ikki fe'lning birikish usuli bilan yasaladi. Bunda birinchi qism **-a, -y** yoki **-b, -ib** qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh formasida bo'ladi, ikkinchi qism esa tuslanadi. Bunday fe'l ikki xil bo'ladi:

1. Leksikalizatsiyalashgan murakkab fe'l.
2. Grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l (yoki analitik forma).

Birikkan fe'llarning har biri o'z leksik ma'nosini saqlagani holda birgalikda bitta murakkab harakatni ifodalasa, leksikalizatsiyalashgan murakkab fe'l hosil bo'ladi. Masalan, olib chiq, borib kel, sotib ol, ola kel kabi.

Birikkan fe'llarda biri o'z leksik ma'nosini ifodalagan holda, ikkinchisi grammatik ma'no ifodalasa, grammatikalizatsiyalashgan murakkab fe'l yoki fe'lning analitik formasi hosil bo'ladi. Masalan, yozib ko'r, o'qib ber, ko'rib chiq kabi.

Murakkab fe'lning leksik ma'nosini ko'pincha uning birinchi qismi ifodalaydi. Unda birikkan so'z esa murakkab fe'l bo'ladi. Masalan, yozib ko'r, ko'rib chiq, olib tur fe'llarida ish-harakat yozib, ko'rib, olib fe'llaridan anglashilib ko'makchi fe'llar (ko'r, chiq, tur) yetakchi fe'lning ma'nosiga qo'shimcha modal ma'no qo'shadi. Ikkinchi tip murakkab fe'l yasashda tubandagi fe'llar ko'makchi fe'l sifatida ishlatiladi.

1. Gorizontalar harakat bildiradigan kel, ket, bor, yur, o't, chiq, yubor so'zlari.
2. Holat bildiradigan o'tir, tur, yot, qol, bo'l so'zlari.
3. Turli ish-harakatni bildiradigan ol, bil, quy, ber, tashla, ko'r, boq, yoz, boshla so'zlari. Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga shunday modal ma'nolarni qo'shishi mumkin.

- a) harakatning davomli ekanligi: ayta tur kabi;
- b) harakatning endi boshlanishi: ayta boshla kabi;
- d) harakatning takrorlanib turishi: aytib yur kabi;
- ye) harakatning tugallanganligi: aytib bo'l kabi;
- f) harakatning so'zlovchidan boshqa shaxsga yoki boshqa shaxsdan so'zlovchiga yo'nalishi: olib bor, aytib ket, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber kabi;
- g) harakatning bajarilish usuli: yozib tashla, aytib yubor kabi;

Yetakchi fe'l bilan ko'makchi fe'l bir formada bo'lsa, juft fe'l hosil bo'ladi. Bunda ham leksik ma'no salmog'i birinchi qismda bo'ladi. Masalan, aytdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, oldi-qoldi, bordi-keldi kabi.

X. FE'LLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI.

Fe'llar tuzilishiga ko'ra 1) sodda (bordi, o'qidi); 2) qo'shma (aytib berdi, borib keldi); 3) juft (o'tdi-ketdi, oldi-qoldi) 4) takroriy (o'qidi-o'qidi, yozdi-yozdi, yurdi-yurdi) kabi turlarga bo'linadi. Masalan, Ergash she'rni o'qidi-o'qidi, nihoyat yodlab oldi.

FE'L – SO'Z TURKUMINI TAHLIL QILISH TARTIBI:

1. Qaysi so'roqqa javob bo'ladi?
2. Gapdagi qaysi so'z bilan bog'langan?
3. Bosh shakli.
4. Nisbati.
5. Bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l.
6. Shaxs – soni.
7. Zamoni va uning turi.
8. Mayli.
9. Tub yoki yasamaligi (yasama fe'lning yasalish usuli).
10. Tuzilishiga ko'ra turi.
11. Gapdagi vazifasi.

TAHLIL NAMUNASI:

Ishchilar kunlik topshiriqlarni oshirib bajarmoqdalar.

Bajarmoqdalar – fe'l, nima qilmoqdalar? so'rog'iga javob bo'ladi. Ishchilar ot so'z turkumi bilan bog'langan, bosh shakli – bajarmoq, aniq nisbatda, bo'lishli fe'l, III shaxs, ko'plikda, hozirgi zamon davom fe'li, aniqlik (ijro) mayli, tub, sodda, gapda – kesim.

MAVZUGA OID MUAMMOLI SAVOLLAR:

1. Fe'l-so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
2. Fe'llar qanday ma'no anglatadi?
3. U qanday morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega?
4. O'timli va o'timsiz fe'llarning farqini aytib bering.
5. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tarixini aytib bering.
6. Fe'l nisbati nima, qanday fe'l nisbatlarini bilasiz?

7. O'zlik va majhullik nisbatlarining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ayting.
8. Birgalik va orttirma nisbatlarining farqini misollar yordamida tushuntirib bering.
9. Fe'l zamonlari deb nimaga aytiladi? Ularning turlarini misollar yordamida aytib bering.
10. O'tgan zamon fe'li va uning turlarini tushuntiring.
11. Hozirgi zamon fe'li haqida ma'lumot bering.
12. Kelasi zamon va uning turlarini ayting.
13. Fe'l mayli deb nimaga aytiladi?
14. Anqlik (ijro) maylini ayting.
15. Buyruq-istak maylini ayting.
16. Shart mayli va maqsad mayli haqida ma'lumot bering.
17. Ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'llar haqida ma'lumot bering.
18. Fe'llar asosan, necha xil yo'l bilan yasaladi?
19. Fe'llar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q. Abdurahmonov, A. Ma'rupov, A. Saydullayev, H. Rustamov. O'zbek tili.-Toshkent: O'qituvchi, 1973.-B. 86-91.
2. M. Asqarova, X. Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasining praktikumi.- Toshkent: O'qituvchi, 1981.-B. 88-108.
3. R. Ikromova, A. Azimova, D.Muhammedova. O'zbek tili.- Toshkent: O'qituvchi, 1983.-B. 134-154.
4. R. Ikromova, K.Qosimova. O'zbek tilidan mashqlar to'plami. –Toshkent: O'qituvchi, 1988.-B. 70-84.
5. M. Asqarova, K.Qosimova, X.Jamolxonov. O'zbek tili.- Toshkent: O'qituvchi, 1989.-B. 117-146.
6. M.Usmonova, Q. Sharipov. O'zbek tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1991.-B. 86-159.
7. U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek tili. -Toshkent: O'zbekiston, 1992.-B. 315-365.
8. A.G'ulomov, Y. Abdullayev, Z. Ma'rupov, N.Omilxonova. Ona tili. - Toshkent: O'qituvchi, 1996.-B. 162-181.

9. H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov, M. Abduraimova. Ona tili, - Toshkent: O'qituvchi, 2001.-B. 22-74.

Mavzu: *FE'LNING FUNKTSIONAL FORMALARI*

R E J A:

1. Sof fe'.
2. Ravishdosh.
3. Sifatdosh.
4. Harakat nomi.

Tayanch iboralar:

vazifadosh (funktSIONal) shakllar, fe'llik va o'zlik belgilari, yasalishi, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, zamon.

Fe'l gapda biror gap bo'lagi vazifasini bajarishga mos keladigan alohida funkSIONal formalarga ega, funkSIONal forma tufayli fe'l gapda kesim, aniqlOVchi va to'ldiruvchi vazifasini bajarishga muvofiqlashadi. O'zbek tilida fe'lning 4 ta funkSIONal formasi bor.

1. Sof fe'.
2. Ravishdosh.
3. Sifatdosh.
4. Harakat nomi.

1. SOF FE'L.

Buyruq-istak, shart mayli formalari **oldi, olmoqchi, olmoqda** kabi zamon formalari sof fe'l deb tushuniladi. Bulardan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi funktsional forma sifatida qatnashmaydi. Sof fe'l doim tuslangan bo'ladi va gapning kesimi vazifasini bajaradi. Masalan: **Hovli olma, qo'shni ol (Maqol)**.

2. RAVISHDOSH.

Harakatning belgisini ko'rsatadigan gapda ko'pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga xos bo'lgan fe'l formasi **ravishdosh** deyiladi. Masalan: **Yuzlaringni silab-siypalab, baxting bor deb esadi yellar** (H.O.). Yoki: **Zavodga ishlagani bordik. Yomg'ir tingach, ufq qizardi**. Barcha fe'llar kabi ravishdosh ham o'timli, o'timsizlik, nisbat, bo'lishli, bo'lishsiz, zamon kategoriyalariga ega. Masalan: **Olgach** — o'timli, **o'qilib** — o'timsiz, **o'qib** — aniq nisbat, **o'qilib** — majh ullik nisbat, **o'qitib** — orttirma nisbat, **o'qigach** — bo'lishli, **o'qilmagach** — bo'lishsiz, **o'qigach** — o'tgan zamon, **o'qilib** — hozirgi zamon, **kelmaguncha** — kelasi zamon.

Ravishdoshlarning zamoni shu gapdagi tuslangan fe'llar zamoniga nisbatan belgilanadi, ya'ni nisbiy bo'ladi. Ammo u bilan moslashmaydi. Tuslangan ravishdoshlarning zamoni aniq. Grammatik jihatdan ravishdoshlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Tuslanadigan ravishdoshlar.
2. Tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga –b (-ib) va –a (-y) qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar kiradi. Masalan: **borib, ishlab, boray, ishlay** kabi. Bu guruhga ravishdosh, birinchidan, barcha ravishdoshlar kabi tuslovchi olmagan holda ishlatilib, gapda hol va ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Shuningdek, murakkab fe'l tarkibidagi yetakchi fe'l ham ravishdosh formasida bo'ladi. **O'ynab-o'ynab yuraman, erkim qo'limda** (Qo'shiq). **Quyosh chiqib, yerlar isiy boshladi**. Bu gaplardagi **o'ynab-o'ynab** — hol, **chiqib** — ergash gapning kesimi, **isiy** — murakkab fe'lning asosiy qismi bo'lib, yetakchi fe'lidir. Ikkinchidan — **b, (-ib)** bilan yasalgan ravishdoshlar, shuningdek, **-y (-a)** bilan yasalgan ravishdoshlarning bo'lishsiz formasi o'zlariga tobe bo'lgan so'zlar bilan tarkibli hol sifatida, ravishdosh oborot sifatida gapning ajratilgan ikkinchi darajali

bo'lagi (ajratilgan hol) bo'ladi. Masalan: **Formani ochdi, sezilar-sezilmas titragan qo'lida tutib, ko'nikmasidan ovozini odatdagidan balandroq qo'yib, asta vazmin o'qidi. (O.).** Uchinchidan, bu ravishdosh tuslanib, aniqlik maylining asosan, o'tgan yoki kelasi zamon fe'lini hosil qiladi va gapda kesim vazifasini bajaradi. Masalan: **kelibman, kelibsan, o'qibdi, o'qibsiz, ko'raman, ko'rasan, ko'radi** kabi.

Tuslanmaydigan ravishdoshlarga –gach, (-kach, qach), -gani (-kani, qani), - guncha (-quncha, -kuncha) qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar kiradi. Masalan: **o'qigach, tekkach, chiqqach, o'qigani, ekkani, tikkani, o'qiguncha, tekkuncha, chiqquncha** kabilar. Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslanmaydilar. Shunga ko'ra, odatda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo'lak (ajratilgan hol), ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Masalan: **Yaxshiligingizni o'lguncha unutmayman (H. H.). Kutubxonaga kitob olgani bordim.** Bunday o'lguncha, olgani so'zlari hol vazifasida qo'llangan.

-gach qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh hol vazifasida kelmaydi. **Yomg'ir tinib, bulutlar tarqagach, tiniq osmonda quyosh nurlari yana porladi.** Bu gapda tarqalgach so'zi kesim vazifasida kelgan. Ravishdosh zamon ma'nosiga ko'ra, 3 ga bo'linadi:

1. O'tgan zamon ravishdoshi.
2. Hozirgi zamon ravishdoshi.
3. Kelasi zamon ravishdoshi.

1. O'TGAN ZAMON RAVISHDOSHI.

1. **–b (-ib) va –gach (-kach, -qach)** qo'shimchalari bilan yasaladi. **Yozib, eslab, yozgach, tukkach, yoqqach, chiqqach** kabi. O'tgan zamon fe'lining ba'zi turlari shu ravishdoshdan hosil qilinadi. **O'qibman, o'qib edim. –b, -ib** bilan yasalgan ravishdoshlarga **–roq** qo'shimchasi qo'shilishi mumkin. Bunday gapda qiyoslash ma'nosi bo'lsa, harakat belgisining ortiqqligi, qiyoslash ma'nosi bo'lmasa, kamligi ifodalanadi. Masalan: **Turg'unboy bugun kechagidan nisbatan shoshilibroq javob berdi,** - belgi ortiq. **Odamlarga o'xshashroq semurg' boshladi so'roq (H.O.)** – belgi kamroq. Bu ravishdoshning bo'lishsiz formasi **bormab(man), bormay, bormasdan** yoki **o'qimab(man), o'qimay, o'qimasdan** kabi.

2. Fe'l negiziga **–gach (-kach, -qach)** qo'shimchalarini qo'shish bilan asosiy fe'ldan anglashilgan harakatdan ilgari bo'lib, uning bajarilish sababini yoki

paytini anglatadigan tuslanmaydigan ravishdosh yasaladi: **o'qimagach, tikmagach**, kabi. ravishdoshning bu turi hozirgi adabiy tilda kam ishlatiladi. Uning gapdagi vazifasi ham chegaralangan yoki ajratilgan hol vazifasidagi ravishdosh ob'yekti bo'lib keladi. **Tong otgach, karvon yo'lga tushdi. Toqqa juda yaqinlashgach, biz o'tirib, dam oldik.** Birinchi gapda ergash gapning kesimi, ikkinchi gapda o'ziga qarashli so'zlar bilan ajratilgan hol vazifasida kelgan ob'yektdir.

2. HOZIRGI ZAMON RAVISHDOSHI.

Fe'l negizidan so'ng **—y** yoki **—a** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Bunda shaxsli fe'l ifodalangan asosiy harakat bilan bir vaqtda bo'lgan harakatni anglatadigan ravishdosh yasaladi. Yakka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan shaxsli fe'l anglatgan harakatga tezlik bilan o'tganlikni bildiradi. Masalan: **Sultonmurod kela solib o'qishga kirishdi (O).** Bo'lishsiz formasi asosiy harakatning bajarilishi holatini, shartini anglatadi. Masalan: **O'z ustida tinimsiz ishlamay, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emas.**

-a (-y) qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh ko'pincha takrorlangan holda ishlatiladi. **O'qiy-o'qiy, yura-yura, ishlay-ishlay** kabi. takrorlangan ravishdosh harakatning davomiyligini anglatadi.

3. Kelasi zamon ravishdoshi.

-gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) qo'shimchalari bilan yasaladi.

1. Fe'l negiziga **-gani (-kani, -qani)** qo'shimchalarini qo'shish bilan shaxsli fe'l ifodalangan harakatdan so'ng bajarilishi maqsad qilib olingan harakatga aytiladi. Masalan: **ek-ekkani, bor-borgani, chiq-chiqqani** kabi. Bu ravishdoshning bo'lishsiz formasi yo'q. Eski stilda — **gali (-kali)** qo'shimchasi bilan ham yasaladi. Masalan: **Ko'rgali keldingmi yor, kuydirgali keldingmi yor (qo'shiqdan). Ko'rgali husningni zoriu, muftalo bo'ldim senga (A.R.).**

2. Fe'l negiziga **—guncha (-kuncha, -quncha)** qo'shimchalarini qo'shish bilan ko'pincha shaxsli fe'l ifodalangan harakatning davom qilish vaqtining o'lchovi bo'lgan harakat anglatiladi. Masalan: **U bu kunlarga yetib kelguncha, tinib-tinchimadi (I.R).** Bo'lishsizlik formasi asosiy harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni anglatadi. **Keksalar kelguncha, majlisni boshlaymiz.**

- guncha (-kuncha, -quncha) qo'shimchasi aslida **—nuvcha (-gan)** va **—cha** qo'shimchalaridan tuzilgan bo'lib, ba'zan ana shu ikki morfema orasida

egalik qo'shimchasi kelishi ham mumkin. Masalan: **kelgunimizcha, kelguningcha, kelgunicha** kabi.

3. SIFATDOSH.

Sifatdosh asosan, predmetning belgisi bo'lgan harakatni anglatadigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo'lgan fe'l formasidir. Masalan: **Dalada ochilgan paxtalar ko'zni qamashtiradi.** Bu sifatlovchi bo'lgan harakatni anglatadi. Sifatdosh barcha fe'llar singari, o'timli-o'timsizlik, nisbat, bo'lishli, bo'lishsizlik va zamon kategoriyalariga ega. Masalan: **O'qigan** (nimani?) **kitobni** – o'timli, **qo'rqqan** (nima qilgan?) o'timsiz.

O'qigan – aniq nisbat, **o'qilgan** – majhullik nisbat, **o'qitgan** – orttirma nisbat, **o'qigan -bo'lishli, o'qimagan**– bo'lishsiz. **O'qigan** – o'tgan zamon, **o'qiyotgan** – hozirgi zamon, **o'qimaydigan** – kelasi zamon kabi.

Sifatdosh o'ziga tobe bo'lgan so'zlar (to'ldiruvchi, hol) hisobiga kengayib, sifatdosh oboroti hosil qilgan holda sostavli sifatlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: **Uzoq Sharqdan kelgan mehmonlar O'zbekiston boyliklari qarshisida hayratdan yoqa ushladilar.**

Sifatdoshga tuslovchi qo'shimchani qo'shish bilan aniqlik maylining birorta zamoniga xos bo'lgan fe'l hosil qilinadi. Tuslangan sifatdosh gapning kesimi bo'lib keladi. Masalan: **Men o'qiganman, bugun mashg'ulotga borasan** kabi. Sifatdosh odatda tuslanmaydi, sifatdoshga odatdagi hollarda kelishik qo'shimchalarini qo'shish mumkin:

1. Otlashganda: O'qiganga hamma havas bilan qaraydi. Bu gapda kishiga so'zi tushib qolganligi uchun sifatdosh otlashadi va kelishik qo'shimchasini oladi.

2. Otlashgan hollarda o'rin kelishigining qo'shimchasini olishi mumkin. Bunda u asosan, ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Masalan: **Oq oltin ochilganda, hamma yoq ravshan bo'lur.** Sifatlovchi va kesim vazifasidagi sifatdosh zamonni aniq ifodalaydi. Sifatdoshning zamoni agar u sifatlovchi vazifasida bo'lsa, shaxsli fe'lning zamoni bilan moslashishi shart emas. Masalan: **Biz toshlar orasidan sharqirab chiqayotgan suvni tomosha qildik.** Bunda shaxsli fe'l (kesim) o'tgan zamonni ifodalasa, sifatdosh (oqayotgan) hozirgi zamonni ifodalaydi. Sifatdoshlar zamon ma'nosiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. O'tgan zamon sifatdoshi.
2. Hozirgi zamon sifatdoshi.
3. Kelasi zamon sifatdoshi.

1. O'tgan zamon sifatdoshi.

O'tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so'zlagan vaqtdan ilgari bo'lgan harakat belgisini anglatadi. O'tgan zamon sifatdoshi fe'l negiziga **–gan (-kan, -qan)** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: **O'qigan, ekan, chiqqan kabi.** O'tgan zamon sifatdoshining ba'zi turlari sifatdoshdan hosil qilinadi. Masalan: **o'qiganman, borgan edim** kabi. Eski adabiy tilda o'tgan zamon sifatdoshi **–mish, -dik** qo'shimchalari bilan ham yasalgan. Bu qo'shimchalar hozir ham uchraydi. Masalan: **Bobom shu kuni yuz yoshga to'lmish (G'.G'), E yorim, sevgilim obod ro'zg'orim (E. J.).**

2. Hozirgi zamon sifatdoshi.

Hozirgi zamon sifatdoshi **–yotgan** va **–vchi (-uvchi)** qo'shimchalari bilan yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so'zlagan vaqtda davom etayotgan harakat belgisini anglatadi. Bulardan birinchi yot fe'llining o'tgan zamon sifatdoshi formasi bo'lib, hozir sifatdosh yasovchi qo'shimcha vazifasini bajaradi. U **–a (-y)** bilan yasalgan ravishdoshga qo'shiladi. **Bor-a-yotgan, kel-a-yotgan, o'qi-yo-tgan** kabi.

Oxirgi unli fe'l negiziga **–vchi**, undosh bo'lgan fe'l negizigi **–uvchi** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan sifatdosh predmetga doim xos bo'ladigan harakat belgisini anglatadi. Masalan: **aytuvchi, keluvchi, bo'luvchi** kabi.

Bu forma ba'zan hozir ham poeziyada uchraydi. Masalan: **Kulimsirab turguvchi toleing porloq (G'.G').** Hozirgi zamon sifatdoshining **– yotgan** orqali yasalgan formasi tuslanmaydi, ammo egalik va kelishik qo'shimchasini oladi. Masalan: **o'qiyotganimda, o'qitayotganingda** kabi. **–vchi, (-uvchi)** bilan yasalgan formasi esa tuslanadi: **ishlovchiman, ishlovchisan** kabi. Sifatdoshning bu turi otlashishga moyildir. Masalan: **uchuvchi, yozuvchi, tikuvchi** kabi. Ammo ular otlashmagan holda ham ishlatiladi. Masalan: **A'lo tikuvchi qizning axloqi ham soz bo'lur (G'.G').**

3. Kelasi zamon sifatdoshi.

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan harakat belgisini anglatadi. Bu fe'lning o'zak-negiziga **–r (-ar)** va **–digan** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: **oqar suv, qaynar**

buloq, ko'rar (ko'zim), yurar (yo'l) kabi. Sifatdoshning bu turi hozirgi tilda ko'proq tustangan holda ishlatiladi: **aytarman, aytarsan** kabi.

Predmetning kelasi zamonda bajariladigan harakat belgisi hozirgi tilda asosan **—digan** qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Bu qo'shimcha ravishdoshning — **a (-y)** qo'shimchasi bilan yasalgan turiga qo'shiladi. Masalan: **boradigan, yuradigan, o'tlaydigan** kabi. sifatdoshning bu turi ham tustanadi. **Yuradiganman, yuradigan** kabi. Eski o'zbek tilida kelasi zamon sifatdoshi **—jak (-ajak), -gay (-kay, -qay), -gu (-g'u)** qo'shimchalari va egalik qo'shimchasi **—asi** qo'shimchasi bilan ham yasalgan. Masalan: **kelajak, kelasi, kelgusi** kabi.

4. HARAKAT NOMI.

Harakat nomi ish-harakatning atamasi bo'lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo'lgan fe'l shaklidir. Masalan: **o'qish, bormoq, o'ynash** kabi. Harakat nomi. Bir tomondan, fe'lga xos bo'lgan o'timli-o'timsizlikka, nisbat kategoriyasiga va boshqarish xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, harakat nomida hozirgi-kelasi zamon ottenkasi ham bor. Bu ottenka qulay sharoitda aniq zamon ma'nosiga aylanadi. Masalan: **Kitob olmoq uchun keldim, g'o'zani sug'orish kerak** kabi. Ikkinchi tomondan, otga xos bo'lgan son, egalik, kelishik qo'shimchalarini olib, gapda ega, to'ldiruvchi, ba'zan kesim vazifalarini bajaradi. Masalan:

1. O'qituvchi uchun esa bo'sh joy yo'q (H.O.).
2. Besh-olti bekatgacha tikka borish kishini charchatib qo'yadi.
3. Har dilda quyosh yondirmoq burchim.
4. Ishlashning foydasi keyin bilinadi.

Ba'zi vaqtlarda ko'makchilar bilan birga qo'llanib, hol vazifasida qo'llanadi. Masalan: **Mansur ertalab yugurish uchun stadion tomon yo'l oldi.** Harakat nomi **—sh, -ish, -moq, -v, -uv** qo'shimchalari bilan yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida **—sh, -ish** qo'shimchalari bilan yasalgan harakat nomi vaqtli matbuotda, ilmiy asarlarda ko'p uchraydi. Bu forma kalka yo'li bilan, ya'ni so'zning o'zi emas, balki uning ma'nosi o'zlashtirilib, yangi atama yaratishda, ayniqsa, faol qatnashadi. Masalan: **proizvodstvo-ishlab chiqarish, dom otdixa-dam olish uyi, prixod-kelish, uxod-ketish, nablyudeniya-kuzatish, pedagogicheskoye chteniya-pedagogik o'qish** kabilar. **—moq** qo'shimchasi bilan yasalgan harakat nomi esa, hozirgi adabiy tilda kamdan-kam ishlatiladi. Bir-biriga ma'nodosh bo'lgan bu uch xil harakat nomidan **—moq** qo'shimchasi bilan yasalgan forma fe'lga yaqin

turadi. Shuning uchun uni shartli ravishda infinitiv (fe'lining noaniq formasi) deb olinadi.

-sh, -ish qo'shimchalari bilan yasalgan forma esa otga yaqin turadi. Shu bois, bu forma o'rnida **–moq** qo'shimchasi bilan yasalgan harakat nomini har vaqt ham ishlataverish mumkin bo'lmaydi. Masalan: ***Yuqori hosil olish – texnikadan foydalana olishga bog'liq.*** Gapdagi harakat nomini **–moq** qo'shimchasi bilan yasalgan (***olmoq***), ***bilmoqqa*** formalari bilan almashtirish stilistik jihatdan to'g'ri emas.

MAVZUGA OID MUAMMOLI SAVOLLAR:

1. Fe'lining vazifadosh shakllari haqida tushuncha bering.
2. Ravishdosh deb nimaga aytiladi?
3. Sifatdoshning sifatga xos va fe'lga xos belgilarini tushuntiring.
4. Harakat nomi va uning yasalishi.
5. Sof fe'lining vazifadosh shakllardan farqini ayting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun qayta ishlangan 2-nashri)-Toshkent: O'zbekiston, 1991-y.
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992-y.
3. A. Aliyev, K. Sodiqov, O'zbek adabiy tili tarixidan, (Universitet talabalari uchun darslik).-T.: O'zbekiston, 1994-y.
4. B. Abdurahmonov, S.Mamajonov, O'zbek tili va adabiyoti, (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik).-T.: O'zbekiston, 1995-y.
5. A. Hojiyev, So'zning morfem tarkibi masalalariga doir “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1998-yil.

Mavzu: RAVISH, MA'NO VA TUZILISHIGA KO'RA TURLARI.

R E J A:

1. Ravish haqida ma'lumot
2. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari.
3. Ravishlarda daraja
4. Ravishlarning yasalihi
5. Ravishlarda modal forma yasalihi.

Tayanch iboralar:

ravish, ravishlarda daraja yasalihi, ma'no turlari, sintaktik vazifa, modal shakli, harakat belgilari.

1. RAVISH HAQIDA MA'LUMOT.

Ish-harakat va holatning belgisini bildiruvchi so'zlar **ravish** deyiladi. Bu xususiyatga ko'ra, ravish turkumiga oid so'zlar fe'lga bog'lanib keladi. Ravishlar fe'l bildirgan harakat-holatni bajarish tarzi, payti, o'rni, maqsadi va shu kabilarni bildiradi. Masalan: **Kecha havo sovuq edi. Mehmon sabrsizlanib, har yoqqa tikildi. Uzoqdan nayning mayin ovozi eshitila boshladi. Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla.**

Ravish turkumiga oid so'zlar ba'zan sifat yoki otga bog'lanib kelishi mumkin. Lekin bunday holatlarda ravish belgining belgisini yoki predmetning belgisini emas, o'zi bog'lanib kelgan sifat yoki otdan anglashiladigan harakat, holatning belgisini bildiradi. Masalan: **Bu yil bahor erta keldi.**

Ravish qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qancha? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va gapda asosan, hol vazifasida qo'llaniladi. Masalan: **Jamoa xo'jaligi a'zolari fidokorona mehnat qilayotirlar.** Ravishlar mustaqil so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik belgilarga ega. Bunday belgilardan biri ravishning o'zgarmasligidir. Ravishlar biror so'zga bog'langanda, formasi o'zgarmaydi. Ular tarkibida uchraydigan ko'plik egalik va kelishik qo'shimchalari ham forma yasovchi sifatida qatnashmaydi. Bu qo'shimchalar ravishning o'zak qismiga kiradi, ya'ni shu qo'shimcha bilangina u so'z ravish hisoblanadi yoki bu qo'shimcha forma yasovchilardan boshqa vazifada qatnashadi. Masalan: **birdan, birga, chalqanchasiga, birdaniga, qatorasiga, kunda** kabi.

Ravishlardagi kelishik va egalik qo'shimchalari o'z asl ma'nosi va vazifasini yo'qotgan. Bu so'zlar xuddi shu ko'rinishda ravishga aylangan.

Masalan: ***Oqshom paytida muvozanatni yo'qotdi-da, chalqanchasiga yerga quladi.*** Shuningdek, ***avvallari, ilgarilari*** kabi ravishlar tarkibidagi ***—lar*** va ***—i*** ko'plik va egalikni ifodalovchi qo'shimchalar emas. Bularidagi ***—lar*** qo'shimchasi ilgarigiga oid noaniq davomli qavatni ko'rsatsa, ***—i*** qo'shimchasi egalik ifodalash (shaxs ko'rsatish) xususiyatini butunlay yo'qotgan. Masalan: ***oqshomlari Nasriddin Afandining latifalarini aytib, ruslarni kuldiradi (O).*** Ravishlar gapda asosan, hol vazifasida kelsa-da, ba'zan ular otga bog'lanib, sifatlovchi vazifasida qo'llanadi. Masalan: ***Tongning uzoq-yaqin yon bag'irlaridan yanada balandroq va dahshatliroq aks-sado eshitildi (S.A.).*** Ravishlar belgini ifodalashi jihatidan sifatga o'xshaydi. Biroq, sifatlar otga bog'lanib, harakat yoki holatning belgisini ifodalaydi. Ravishlarda so'z yasaliş hodisasi mavjud.

2. RAVISHLARNING MA'NO JIHATDAN TURLARI.

Ravishlar ma'no jihatdan olti turga bo'linadi:

1. Holat (tarz) ravishi.
2. Miqdor-daraja ravishi.
3. Payt ravishi.
4. O'rin ravishi.
5. Sabab ravishi.
6. Maqsad ravishi.

1. Holat (tarz) ravishi.

Holat (tarz) ravishi ish-harakatning qay holatda, qay usulda bajarilishini ifodalab, qanday?, qanday qilib?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'ladi. Ravishlarning asosiy qismini holat ravishlari tashkil etadi. Holat ravishlarini ***jim, piyoda, to'kin, tiriklay, astoydil, yaqqol, birdan, mardona, yonma-yon, tasodifan, ko'pincha, xomligicha, yangicha, asta, sekin*** kabi so'zlar hosil qiladi. Masalan: ***Yo'lchi boshini quyi solib, jim o'tirdi (O).*** Holat ravishi gapda:

a) tarz holi vazifasida keladi. Masalan: ***Zulfiya turmush sinovlariga mardonavor bardosh berdi;***

b) aniqllovchi vazifasida keladi. Masalan: ***Kolxozga yangicha ilm kerak;***

v) kesim vazifasida keladi. Masalan: ***Auditoriya jim-jit, hamma unga qarar. (N. K.).***

2. Miqdor-daraja ravishi.

Miqdor-daraja ravishlari ish-harakat yoki belgining miqdorini yoki kuchini bildiradi, shuningdek, predmetning noaniq miqdorini bildiradi va qancha?, qay daraja? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Miqdor – daraja ravishlari ma'nosiga ko'ra yo miqdor tushunchasini ifodalaydi yoki boshqa so'zning faqat ma'nosini kuchaytiradi. Shunga ko'ra bu guruh ikkiga bo'linadi.

1. Miqdor ravishi.
2. Daraja ravishi.

1. **Miqdor ravishi** harakat yoki predmetning noaniq miqdorini anglatadi: ***ko'p, kam, oziq-ovqat, biroz, sal, picha, qittak, hiyol*** kabi.

2. **Daraja ravishi** harakat va belgi ma'nosini kuchaytiradi: ***juda, g'oyat, nihoyatda, har qancha, obdon, ozmuncha, aslo, hech*** kabi. Miqdor-daraja ravishlari gapda ko'pincha hol vazifasida qo'llanadi. Masalan: ***Kechga yaqin biroz charchadik.*** Ba'zan aniqllovchi yoki kesim vazifasida qo'llanadi. Masalan: ***Ko'p o'qigan, ko'p bilar. Bu yil hosil mo'l.*** Miqdor ravishlari otlashib, son, egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi. Gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich vazifalarini ham oladi. Masalan: ***bir piyola choy bahonasida, ko'plar bilan miriqib gaplashib oldik (I.R).***

3. **Payt ravishi.**

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon?, qachongacha?, qachondan? kabi so'roqlariga javob bo'ladi. ***Endi, erta, avval, dastlab, tunov kun, qadim, burun, yiliga, yaqinda, tongda, kechqurun, bahorda, yildan yilga, qishin-yozin, erta-kech*** kabi so'zlar payt ma'nosini ifodalaydi. Masalan: ***bu yerda kunduzi bolalar, kechqurun kattalar bilim olishadi.*** Payt ravishlari gapda payt holi vazifasida keladi. Masalan: ***hozir choy qaynaydi, chaqchaqlashib tong orttiramiz (S.A.).*** Ba'zan kesim vazifasida qo'llanishi ham mumkin. Masalan: ***Biz borganda vaqt kechqurun edi.***

4. **O'rin ravishi.**

O'rin ravishi ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradi va qayerda?, qayerdan?, qayerga? kabi so'roqlariga javob beradi. O'rin ravishini ***oldinda, uzoqda, yaqinda, pastda, nari, quyiga, soy bo'yida, tong payti dalada, qishloq tomorqalarida, bu yoqqa*** kabi so'zlar hosil qiladi. O'rin ravishi gapda hol vazifasida qo'llanadi. Masalan: ***Tog' cho'qqilari uzoqdan ko'rinib turibdi.***

5. Sabab ravishi.

Sabab ravishi ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, nega?, nima uchun?, nima sababdan? kabi so'roqlariga javob bo'ladi. Noilojlikdan, chorasiz, chorasizlikdan, noiloj kabi so'zlari yordamida hosil bo'ladi. Sabab ravishi gapda sabab holi vazifasida qo'llanadi. Masalan: ***Suvsizlikdan avvallari bu yerlarga ekin ekilmas edi.***

6. Maqsad ravishi.

Maqsad ravishi ish-harakatning bajarilishdagi maqsadini bildirib, nega?, nima maqsadda?, nima uchun? kabi so'roqlariga javob bo'ladi. Maqsad ravishi gapda maqsad holi vazifasida qo'llanadi. Masalan: Qadamimni ataylab, dadil-dadil bosaman, yoki Otaqo'zi jo'rtaga yarim soat qolganida yo'lga chiqdi (O. YO). Ataylab shahardan keluvdim. Harakatning bajarilish maqsadi uchun, deb yordamchi so'zlari va –gani qo'shimchali ravishdoshlar yordamida aniq ifodalanadi. Masalan: ***O'qish uchun kelgan. Yordamlashay deb keldim. O'qigani keldi kabi.*** Shu sababli, o'zbek tilida maqsadni ifodalovchi mustaqil so'zlar (ravishlar) kamdir.

3. RAVISHLARDA DARAJA.

Sifat-so'z turkumida bo'lganidek, ravishlarda ham belgini darajalab ko'rsatish hodisasi mavjud.

Ravishlardagi qiyosiy daraja sifatlardagidek morfologik usul bilan, ya'ni – ***roq*** yordamida hosil bo'ladi. Masalan: ***tez-tezroq, sekin-sekinroq.*** Ortirma darajada esa sintaktik usul bilan, ya'ni oddiy darajadagi ravish oldiga juda, g'oyat, nihoyatda, g'oyatda, eng, hammadan kabi so'zlarni keltirish orqali hosil qilinadi. Masalan: ***Eshikdan To'xtasin aka kirib kelganini hammadan ilgari Majid payqadi (YU.SH).*** Yoki: ***Ularning har biri eng oldin O'lmas bilan so'rashishga oshiqardi.***

4. RAVISHLARNING YASALISHI.

O'zbek tilida ravishlar asosan, 2 xil usulda yasaladi:

1. Morfologik usulda.
2. Sintaktik usulda.

1. ***Morfologik usulga*** ko'ra, ot ba'zan sifat, son, olmosh, fe'lning sifat-dosh va harakat nomi formalariga maxsus ravish yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali ravish yasaladi.

-an otlarga: Majburan, ruhan, tamoman, tasodifan kabi.

-lab ot, sifat, son, ravishdoshlarga: ertalab, haftalab, bittalab, ko'plab, yaxshilab kabi.

-cha o'zbekcha, askarcha, yangicha, eskicha, istagancha, hozircha, ko'pincha kabi.

-larcha ot, sifatlarga: o'rtoqlarcha; ravishlarga: butunligicha, tirikligicha, o'zligicha, ko'pligicha kabi.

-ona ba'zi bir ot, sifat, ravishlarga: do'stona, mardona, mag'rurona, ojizona, makkorona, kamtarona kabi.

-lay (-layin) ba'zi bir olmosh, sifatlarga: butunlay, tiriklayin, tiriklay (in) kabi.

-n, in ba'zi bir ravish, fe'llarga: ertan, kechin, yashirin kabi.

-chasiga ot, sifatlarga: harbiycha, harbiychasiga, ochiqchasiga kabi.

-siz, -be: to'xtovsiz, beto'xtov, hisobsiz, behisob kabi.

-day (-dek) ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ba'zan son, modal so'z, ravishdoshlarga: burgutdek, toshday, kaftdagidek, har kungidek, yo'qday, borday, ko'pdek, o'zdek, shunday, ko'rganday, achingandek, birdek kabi.

2. Sintaktik usul bilan:

a) qo'shma;

b) murakkab;

v) juft ravishlar yasaladi.

a) Qo'shma ravish har birini ayrim, erkin holda qo'llab bo'lmaydigan ikki so'zning birikib ketishidan hosil bo'lgan va harakatning bitta belgisini ifodalaydigan yangi ravishdir. Qo'shma ravishlar quyidagicha yasaladi:

1. O'rin, payt ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar yoki so'roq olmoshi oldidan – **alla** elementini qo'shish bilan: allaqanday, allanechuk, allaqachon, allavaqt kabilar.

2. Bir yoki oz so'zi bilan mustaqil ishlatilmaydigan so'zni biriktirish orqali: birmuncha, ozmuncha, birato'la, birvarakay, birpas kabi.

b) **Murakkab ravish** har birini ayrim va erkin qo'llash mumkin bo'lgan ikki so'zning birikib, harakatning bitta belgisini ifodalaydigan yangi ravishdir. Murakkab ravishlar quyidagicha yasaladi:

1. O'rin-payt ma'nosidagi so'zlar yoki so'roq olmoshi oldidan o'z ma'nosini, mustaqilligini va urg'usini saqlagan –**har, hech bir** so'zlarini keltirish bilan: bir lahza, biroz, har vaqt, bir yo'la, hech qachon, hech vaqt, bir nafas, har gal, har zamon, bir zamon kabi.

2. O'z leksik ma'nolarini saqlagan so'z formalarining aniqlovchi-aniglanmish munosabatida birikishdan: hamma vaqt, shu zahoti, tunov kuni, kuni kecha, shu yerda, bu yoqqa, bu yoqdan kabi.

v) **Juft ravish** ikki so'zning teng bog'lanishidan yasalgan ravishdir. Juft ravishlar quyidagicha yasaladi:

- 1) ma'nodosh so'zlardan asta-sekin, eson-omon ochiq-oydin, uzil-kesil kabi.
- 2) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: qishin-yozin, erta-kech, ochin-to'qin, kecha-kunduz, ostin-ustun kabi.
- 3) Otlarni, olmoshlarni takrorlash bilan: Ko'pdan-ko'p, yildan-yil, shundan-shunga kabi.

Ma'lum sintaktik sharoit tufayli ravishlarning ko'p qismi boshqa so'z turkumlaridan ko'chgan. Ravishga ko'chish hodisasi deyarli barcha mustaqil so'zlarda mavjud. Masalan: kunda, kuniga, kunduzi, oldiga, orqaga kabilar, otdan: yangidan, yaqinda, sifatdan; birdan, birga, sondan: o'sha fe'ldan ravishga ko'chgan, ya'ni, ravish bo'lib qolgan. Ravishlar tuzilish jihatidan: Sodda (tez, ko'p, mardona, birdan), qo'shma (har vaqt, bir zum, hech qachon), juft (asta-sekin, ochiq-oydin, qishin-yozin) takroriy (asta-sekin, tez-tez, sekin-sekin) turlarga bo'linadi.

5. RAVISHLARDA MODAL FORMA YASALISHI.

Ravishlarda modal forma yasalishi qiyos qilinmagan harakat (yoki predmet) belgisining odatdagi miqdordan kam ekanligi, noaniqligi, belgiga munosabat kabi modal ma'nolar **–roq, -gina (-kina, -qina)** qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Masalan: ko'proq, ozroq, sekinroq, ko'pgina, shundoqqina, andakkina kabi.

Qiyos qilinmagan belgining kuchliligi, takrorlanib turishi, juda, nihoyatda, behad, g'oyat kabi so'zlarni ravish oldida qo'llash yo'li bilan hosil bo'ladi. Masalan: juda tez, nihoyatda ko'p, behad jim kabi. Bunday ravishlar kuchaytirma ravish deyiladi. Ravishlarni takrorlash yo'li bilan ham kuchaytirma ravishlar, ya'ni, modal ma'no ifodalanishi mumkin. Masalan: **kam-kam, tez-tez, ko'p-ko'p** kabi.

MAVZUGA OID MUAMMOLI SAVOLLAR.

1. Ravish deb nimaga aytiladi?
2. Harakat belgilari turlarini tushuntiring.
3. Ravishlarning yasalishini tushuntiring.
4. Ravishlarda modal shakli deganda nimani tushunasiz?
5. Ravishlarda darajani tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun qayta ishlangan 2-nashri)-Toshkent: O'zbekiston, 1991-y.
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992-y.
3. A. Aliyev, K. Sodiqov, O'zbek adabiy tili tarixidan, (Universitet talabalari uchun darslik).-T.: O'zbekiston, 1994-y.
4. B. Abdurahmonov, S.Mamajonov, O'zbek tili va adabiyoti, (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik).-T.: O'zbekiston, 1995-y.
5. A. Hojiyev, So'zning morfem tarkibi masalalariga doir "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1998-yil.

MUNDARIJA:

1. Fe'l so'z turkumi	1.
1.1. Fe'l so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot	1-2.
1.2. O'timli va o'timsiz fe'llar	2.
1.3. Fe'l nisbatlari	2-7.
1.4. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	7-8.
1.5. Fe'l zamonlari	8-16.
1.6. Fe'l mayllari	16-20.
1.7. Ko'makchi fe'llar	20-21.
1.8. To'liqsiz fe'llar	21-22.
1.9. Fe'llarning yasalishi haqida ma'lumot	22-25.
1.10. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari	25-26.
2. Felning funktsional formalari	28-36.
2.1. Sof fe'l	28-29.
2.2. Ravishdosh	29-32.
2.3. Sifatdosh	32-34.
2.4. Harakat nomi	35-36.
3. Ravish, ma'no va tuzilishiga ko'ra turlari	37-43.
3.1. Ravish haqida ma'lumot	37-38.
3.2. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari	38-40.
3.3. Ravishlarda daraja	41.

3.4. Ravishlarning yasalishi	41-43.
3.5. Ravishlarda modal forma yasalishi	43.